

**MEVALI BOG‘ VA TOKZORLARDA TUTQICH BELBOG‘LARNI
QO‘LLASH TARTIBI.**

Oybek O‘KCHM inspektorlari:

A.Malikov

M. Mamatqulov

Sh. Eshboyev

Reja:

- I. Kirish.**
- II. Aosiy qism.**
 - * Tutqich belbog‘larning maqsad va vazifalari.
 - * Tutqich belbog‘ turlarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar.
- III. Xulosa.**
- IV. Foydalanilgan adabiyotlar.**

Kirish.



Respublikamizning geografik o‘rni va tuproq-iqlim sharoitlari dehqonchilikning barcha turlarini rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Serquyosh tabiatimiz sug‘oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Ammo, bunday iqlim sharoiti qishloq xo‘jalik ekinlariga zarar yetkazadigan har xil hasharotlarning ko‘payishiga ham sabab bo‘ladi. O‘rta Osiyoda deyarli barcha zararkunandalar tez rivojlanib yiliga shimoliy mintaqalarga nisbatan bir necha marta ko‘p bo‘g‘in beradi. Bu esa o‘simpliklarni himoya qilish uchun zararkunandalar biologiyasini, uni o‘simplik va muhit bilan uzviy bog‘lanishini chuqr o‘rganib, eng samarali kurash chora va vositalarni qo‘llashni taqazo etadi.

Avgust-sentabr oylarida kuzgi va kechki olma, nok hamda behi bog‘laridagi daraxtlarga tutqich belbog‘larni bog‘lash ishlarini amalga oshirish zarur tadbirlardan biri hisoblanadi.

Tutqich belbog‘larning maqsad va vazifalari.

Birgina tuzoqli belbog‘larni olib qaraydigan bo‘lsak, daraxtlardan yerga tuxum qo‘yish uchun va keyin daraxtlarga chiqish uchun harakatlanayotgan qurt – qumursqalarni tutish va yo‘q qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Tutqich belbog‘larni oktabr-noyabr oylarida daraxtlardan yechib olib, qaynoq suvga solib, ulardagi olma qurti va boshqa zararkunandalarni nobud qilish, shuningdek, yoqib yoki ko‘mib yo‘q qilish maqsadga muvofiq.

Tutqich belbog‘ turlari va ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar.

Tuzoqli belbog‘lar. Daraxtlardan yerga tuxum qo‘yish uchun va keyin daraxtlarga chiqish uchun harakatlanayotgan qurt-qumrsqalarni tutish hamda yo‘q qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Odatda tuzoqli belbog‘ning kengligi 20-25 sm ni tashkil etib, turli materiallardan (poxol, somon, qanorqop, karton, porolon, polietilen va h.k.) tayyorlanadi va yerdan 40-50 sm balandlikda, daraxtning silliq tana hamda novdalariga o‘rnatib chiqiladi.

Tuzoqli belbog‘larni o‘rnatishda dastlab daraxtning belbog‘ o‘rnatiladigan joyi qurigan po‘stloq va shox-shabbalardan yaxshilab tozalanadi. Keyin esa daraxtlarga o‘rnatiladi.

Belbog‘larning quruq, zaharli va yelimli turlari mavjud.

Quruq belbog‘lar. Gofrirovka qilingan qog‘ozdan eni 20-25 sm o‘lchamdagি tasmasa qirqib olinadi va gofri tomonini yuqoriga qilib daraxt tanasiga chilvir yoki rezinka yordamida bog‘lab quyiladi. Daraxt tanasini qisib qo‘ymasligi uchun bir oyda bir marta belbog‘ bog‘ichi bo‘shatib qo‘yiladi.

Ko‘pgina tajribali bog‘bonlar uni kuzda qurt-qumrsqalar qishlash uchun joy axtarayotgan paytda qo‘llaydilar.

Yana bir usul: 20 sm qog‘oz tasmasa qirqib olinadi va daraxt tanasiga konussimon qilib bog‘lab qo‘yiladi. Bunda pastki qismi kengroq (orasiga hasharotlar bemalol kira oladigan), tepa qismi esa jips qilib daraxt tanasiga bog‘lab qo‘yiladi va hech qanday ochiq yo‘lakchalar qoldirmaslik maqsadida loy bilan suvaladi.

O‘rnatilgan tuzoqqa 4-5 mm rezina lenta aylanasiga yopishtirib chiqiladi. Keyin uni yarmidan qayirib, ichiga moy qo‘yib qo‘yilsa, undan hasharotlar umuman chiqib ketolmaydi.

Ikki tomonlama og‘zi ochiq belbog‘. Bunda karton, porolon, shisha matodan 30 sm kenglikda tasmalar qirqib olinadi va daraxt tanasiga ikki tomonini ochiq qilib, ya’ni o‘rtasidan mahkam bog‘lab qo‘yiladi. Qog‘ozning daraxt tanasiga tegib turgan ichki tarafi loy bilan suvaladi. Har ikki tomondan harakatlanib, belbog‘ orasiga kirgan qurt-qumrsqalar uning ichidan chiqolmay nobud bo‘ladilar. Agar porolon yoki shisha matoning ustiga skotch bilan plyonka bog‘lab qo‘yilsa, hasharotlar tashqi tomondan ham hech qayerga o‘tolmaydilar.

Navbatdagi usul quyidagicha: poxol, qanorqop yoki somondan jgut qilib, daraxt tanasiga bog‘lab qo‘yiladi. Uning orasiga qurt-qumrsqalar kunduz paytida yoki tuxum qo‘ygani kiradi. Bu belbog‘larni haftada bir marta dastlab plynoka ustiga yaxshilab qoqib olib, so‘ngra yoqib yuborish lozim. Qoqilganda foydali yirtqich hasharotlar ham plynokaga tushadi, lekin ular tezda uchib yoki o‘rmalab ketadi. Zararkunandalar esa tez harakatlana olmaydilar.

Zaharli belbog‘lar. Ularning negizini kimyoviy xossalari tashkil etadi. Bu jarayonda qanorqop, porolon yoki boshqa yumshoqroq matoni 3-4 qavat qilib, ruxsat etilgan zaharli moddaga shimdirliladi. Keyin esa daraxt tanasiga bog‘lab, ustini polietilen bilan o‘rab qo‘yiladi. Bog‘lash usullari yuqorida keltirilgan quruq belbog‘larniki singari amalga oshiriladi. Mazkur belbog‘lar 3-4 haftada o‘z ta’sir kuchini yo‘qotadi va ular qayta dorilash uchun yechib olinib, zaharli moddaga shimdirligach yana daraxtgaga bog‘lab qo‘yiladi.

Xulosa.

Bugungi kunda o‘simgiklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilishda oson va tezkor usul sifatida kimyoviy usulni qo‘llab qo‘ya qolamiz. Ammo bu usulni ekologik va iqtisodiy nuqtai nazardan afzal deb bo‘lmaydi.

Daraxtlarga tutqich belbog‘lar bog‘lab yig‘ilgan qurtlar yo‘q qilinsa, ximikatlarni kamroq ishlatish imkonи tug‘iladi. Belbog‘lar haftada bir marotaba yechilib, to‘plangan qurtlar yo‘q qilingandan so‘ng yana bog‘lab qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adebanjo F. Oni M.O. - Adeyemi College of Education, Moro D.D. - Lagos State University, BASIC ENTOMOLOGY. Nigeria. 2012
2. Бей-Биенко Т.Я. Общая энтомология. Изд.2. Изд.3. М.: Высшая школа, 1966 г., 496 сез. 3. Дадаев С. Фойдали ҳашаротлар. Тошкент. «Низомий номидаги ТДПУ» 2002й., 130 бет
3. Dadayev S.D., Dadayeva G.S. Umumiy entomologiya fanidan o‘quvuslubiy qo’llanma. Guliston. 2013 y., 121 bet.

4. Dudnik A. V. Entomology: lecture / A. V. Dudnik. - Nikolaev : MNAU, 2016. - 89 p.
5. Ergashev D.T., Umumiy entomologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o 'quv - uslubiy qo'llanma. Namamangan 2019 y.

Axborot manbaalari:

6. www.karantin.uz
7. www.wikipedia.uz
8. www.toucansolutions.com/pat/insects.html.
9. www.toucansolutions.com/pat/insects.html.

